

FARG'ONA SHAHRIDAGI PREZIDENT

MAKTABI

PRESIDENTIAL SCHOOL IN FERGANA



YANGI O'ZBEKISTON

QANOTLARI



FARG'ONA SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABIDA YANGI O'QUV YILIGA START BERILDI



Prezident ta'lif muassasalari agentligi tizimidagi Farg'ona shahridagi Prezident maktabida yangi o'quv yili boshlandi. Tadbirda Agentlik rahbari Hilola Umarova so'zga chiqib, barchani yangi o'quv yili bilan tabrikladi:

- Izlanuvchan va bilimga chanqoq yosh avlod mamlakatning eng katta xazinasidir. Ishonamanki, yurtimizning porloq kelajagi siz-chaqnoq ko'zli yoshlар qo'li bilan bunyod etiladi. Bu yo'lда hech chekinmang, to'xtamang - maqsadingiz yo'lida, yurtimiz rivojiga hissa qo'shishda dadil bo'ling.

Tadbirda Farg'ona viloyati hokimi Xayrulla Bozorov va jamoatchilik vakillari so'zga chiqib, o'quvchi yoshlarga o'z tilaklarini bildirishdi.

The new school year has begun at the Presidential School in Fergana, which is part of the Presidential Agency for Educational Institutions. Speaking of the event, the head of the Agency Hilola Umarova congratulated everyone on the new academic year:

- The inquisitive young generation is the greatest treasure of the country. I believe that the bright future of our country will be built by you - bright young people. Don't back down on this path - be courageous towards your goal in contributing to the development of our country.

The governor of Fergana region Khairulla Bozorov and members of the public spoke at the event and expressed their wishes to the students.

ОБЯВЛЕН СТАРТ НОВОМУ УЧЕБНОМУ ГОДУ В ФЕРГАНСКОЙ ПРЕЗИДЕНТСКОЙ ШКОЛЕ

Новый учебный год начался в Президентской школе в Фергане, входящей в состав Агентства Президентских образовательных учреждений. Выступившая на мероприятии глава Агентства Хилола Умарова поздравила всех с новым учебным годом:

- Любознательное молодое поколение - величайшее достояние страны. Я верю, что светлое будущее нашей страны будет строиться вами - яркой молодежью. Не отступайте на этом пути - будьте смелыми на пути к своей цели, внести свой вклад в развитие нашей страны.

На мероприятии выступили хаким Ферганской области Хайрулла Бозоров и представители общественности, которые высказали свои пожелания студентам.



Farg'ona shahridagi
Prezident maktabiga
ijrochi direktor lavozimiga
Hasanxon Husanov
tayinlandi.

2009-yili O'zbekiston jahon tillari universitetining ingliz tili filologiyasi yo'nalishini tamomlagan Hasanjon Husanov 2012-yili Hindistonning Haydarabod shahrida Ingliz va chet tillari universitetida magistrlik darajasini yoqladi. Mehnat faoliyati davomida u kasbhunar kolleji, akademik litsey, oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchi, o'quv markazida IELTS instruktori, xalqaro kompaniyada tarjimon-operator hamda bo'lim boshqaruvchisi vazifalarini bajargan. Toshkent shahridagi Prezident maktabida ingliz va koreys tillari o'qituvchisi sifatida ishlalagan.

Hasankhan Husanov has been appointed as executive director of the Presidential School in Fergana.

Hasankhan Husanov, who graduated from the Uzbek State World Languages University in 2009 with a degree in English Philology, received his master's degree in 2012 from the University of English and Foreign Languages in Hyderabad, India. During his career, he has worked as a teacher in professional colleges, academic lyceums, higher education institutions, IELTS instructor in the educational center, interpreter-operator and department manager in an international company. Up until now, he has worked as a teacher of English and Korean languages at the Presidential School in Tashkent.

Хасанхон Хусанов назначен исполнительным директором Президентской школы в Фергане.

Хасанхон Хусанов, окончивший Узбекский государственный университет мировых языков в 2009 году по специальности «английская филология», в 2012 году получил степень магистра в Университете английского и иностранных языков в Хайдарабаде, Индия. За свою карьеру работал преподавателем в профессиональных колледжах, академических лицеях, высших учебных заведениях, инструктором IELTS в учебном центре, переводчиком-оператором и менеджером отдела в международной компании. До нынешнего момента работал учителем английского и корейского языков в Президентской школе в Ташкенте.

Prezident maktablariga xalqning bilimli farzandlari saralab olindi!



Barchamizga ma'lum 2021-2022 o'quv yilida Respublikamiz bo'yicha yana 10 ta Prezident maktablari o'z faoliyatini boshlash arafasida. Shu maktablardan biri Farg'ona shahrida qad rostladi. Iyul oyida 9537 nafar o'quvchilar va avgust oyida 2880 nafar o'quvchilar ishtirokida Farg'ona davlat universiteti stadionida Prezident ta'lim muassasalari agentligi, Xalqaro Cambridge assessment tashkiloti hamda Davlat test markazi hamkorligida test sinovlari tashkillandi. 18 sentyabr kuni Xalqaro Cambridge assessment tashkiloti sayti orqali o'quvchilarning yakuniy natijalari e'lon qilindi. Prezident ta'lim muassasalari agentligi tomonidan o'quvchilarning ijtimoiy pasporti shakillantirilildi. Va jarayonlarda bevosita ishtirok etgan holis kuzatuvchi sifatida quyidagi raqamlarni havola qilmoqchiman. Barcha yangi Prezident maktablariga bu yil 144 nafar o'quvchi qabul qilinadi. Farg'ona shahridagi Prezident maktabiga qabul qilingan 144 nafar

o'quvchilarning 113 nafarini o'g'il bolalar, 31 nafarini qizlar tashkil qiladi. 8 nafar o'quvchilar yolg'iz onalari tarbiyasida, 3 nafar o'quvchining otasi horijiy davlatlarda, 11 nafarining otalari o'qituvchilar, 14 nafari tibbiyot xodimlarining farzandlari, 7 nafar o'quvchilarning otalari nafaqada, 31 nafar o'quvchilar tadbirkorlar, savdo

sohasi xodimlari va nonvoylarning farzandlari, 25 nafar o'quvchilar hunarmand ustalar (kosiblar, beshik ustalari, mebel ustalari, kalitsozlar) ning farzandlari, 13 nafari haydovchilarning farzandlari, 5 nafari o'quvchilarning otalari huquqshunoslar, 7 nafar o'quvchilarning otalari iqtisodchilar va bank xodimlari, 13 nafar o'quvchilarning otalari zavod va kombinatlar ishchilari, 4 nafar o'quvchilar Ichki ishlar xodimlari va harbiy hizmatchilarning farzandlari, 3 nafari tuman hokimliklari xodimlari farzandlari ekanligi aniqlandi.

Prezident maktablariga kirgan qorako'z bilimdon bolajonlarimiz va ularning ota-onalarini tabriklaymiz. Omadlarini bersin, shu maktabda o'qish sizning peshonangizga yozilgan ekan, olgan bilimlaringizni kamolotga yetkazing! Chet ellarda o'qib, ishlab yurganingizda "O'zbeklar shunday tanti xalq ekan" degan yaxshi taassurotlar qoldiring!

Farzandi kirolmagan ota-onalar bu bolalarimizning hayotidagi birinchi sinov edi undan munosib o'tishga yordam beraylik. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan bolalarni "Ular bilimsiz edi sen zo'r eding"- deb emas, "Yana ko'proq o'qib-o'rganishing kerak"- deylik! "Kelajakda yurtimizga, xalqimizga foydasi tegadigan yuqori salohiyatli inson bo'lasan"- deylik! Prezident Maktablari ko'plab ota-onalarga farzandlari ta'limiga e'tibor qaratishlari uchun katta rag'bat berdi! Kuchli bilim beradigan, salohiyatli ustozlarimiz va 100 dan 100 urib chiqadigan bolalarimiz borligini ko'rsatdi! Va ayni kunda o'zbek tilidagi sinflarning obro'sini sezilarli tarzda ko'tardi. Avvalgidek ota-onalar farzandlarining rus sinflarida emas o'zbek sinflarida o'qishlarini quvvatlay boshladilar.

**Farg'ona shahridagi Prezident maktabi
MMIB direktor o'rinosi
Odilhujayeva Maftuna Xaqnazarovna**

Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi rahbariyati tomonidan Prezident maktabida uchrashuv tashkil etildi.

Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, zararli ta'sirlarga qarshi tura olishini mustahkamlash, ma'naviy, axloqiy va madaniy kamol toptirishga ko'maklashish, yoshi ulg'ayib borayotgan yoshlarni kasbga yo'naltirish, vatanga sadoqatli, fidoyi yoshlar etib tarbiyalash, kelgusida o'ylagan yuksak marralariga erishishlari uchun kerakli tavsiyalar berish, yoshlarni o'zlari qiziqtirgan savollariga javob olishlari uchun joriy yilning 28- oktyabr kuni Farg'ona shahridagi Prezident maktabida uchrashuv tashkil etildi.

The leadership of the Emergency Situations Department of Fergana region organized a meeting at the Presidential School.

The event was organized with the aim of educating young people the spirit of patriotism, civic duty, tolerance, respect for the law, national and universal values, strengthening their resilience to harmful influences, promoting spiritual, moral and cultural development, guiding young people to the profession, cultivating loyalty to the motherland. A meeting was held on October 28 at the Presidential School in Fergana to give young people the advice they need to achieve their goals and to get answers to their questions.

Руководство ДЧС Ферганской области организовало встречу в Президентской школе.

Для того чтобы воспитать молодежь в духе патриотизма, гражданского долга, толерантности, уважения к закону, национальным и общечеловеческим ценностям, укрепить ее сопротивляемость к пагубным воздействиям, способствовать духовно-нравственному и культурному развитию, ориентировать молодежь на профессию, воспитать лояльность, 28 октября в Президентской школе в Фергане состоялась встреча, на которой молодые люди получили советы, необходимые им для достижения своих целей, и получили ответы на свои вопросы.



Farg'ona shahridagi Prezident maktabida psixologik trenninglar tashkillanmoqda.

Men va do'stlarim!

Farg'ona shahridagi Prezident maktabida o'quvchilarning psixologik portretini yaratish, yangi muhitga moslashuvchanligini oshirish maqsadida "Men va do'stlarim" mavzusida trenning mashg'ulotlari tashkillandi. Treningda maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosbosari M.Odilxo'jayeva, yoshlar yetakchisi O.Xatamova va maktab psixologi D. Azimovalar ishtirok etdilar.



Me and my friends!

In order to create a psychological portrait of students, increase their adaptability to the new environment, the Presidential School in Fergana organized a training session on "Me and my friends." The training was attended by the deputy director for spiritual and educational work of the school M. Odilkhojayeva, youth leader O. Khatamova and school psychologist D. Azimova.

В Президентской школе в Фергане организуются психологические тренинги.

Я и мои друзья!

В целях формирования психологического портрета учащихся, повышения их адаптивности к новой среде Президентская школа в Фергане организовала тренинг на тему «Я и мои друзья». В тренинге приняли участие заместитель директора по духовно-просветительской работе школы М.Одилходжаева, молодежный лидер О.Хатамова и школьный психолог Д.Азимова.

Qadring baland bo'lsin, ona tilim!

Farg'ona shahridagi Prezident maktabida O'zbek tiliga davlat maqomi berilganligining 32 yilligi keng nishonlandi. Tadbirda o'quvchilar tomonidan tayyorlangan she'rlar, mumtoz adabiyotning ara asarlari asosida sahna chiqishlari taqdim etildi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida savol-javoblar uyushtirildi.



Be always honored, mother tongue!

The 32nd anniversary of the granting of state status to the Uzbek language was widely celebrated at the Presidential School in Fergana. The event featured student-created poems and stage performances based on classical literature. There were also questions and answers among the students.

Будь всегда в почёте, наш родной язык!

К 32-летию присвоения государственного статуса узбекскому языку широко отметили в Президентской школе Ферганы. На мероприятии дети выступили со стихами, и спектаклями по мотивам классической литературы. Были проведены блиц-опросы среди студентов.





Fan olimpiadalariga tayyorgarlik

Farg'ona shahridagi Prezident maktabida o'quvchilarni Xalqaro va Respublika Olimpiadalariga tayyorlash maqsadida Tarbiya va Tarix fani o'qituvchisi Yunusov Ahrorjon Aminjonovich tomonidan tayyorlangan taqdimot namoyish etildi.

Taqdimot so'ngida maktabning Olimpiadalarga tayyorgarlikni tashkillash bo'yicha ishchi guruhi a'zolari tavsiya etildi va maktabning "Respublika va Xalqaro Olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rish va o'quvchi yoshlarni ishtirokini ta'minlash" bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

Preparation for Olympiads

The Presidential School in Fergana hosted a presentation by Yunusov Ahrorjon Aminjonovich, a teacher of education and history, to prepare students for the International and Republican Olympiads.

At the end of the presentation, members of the school's Olympic Preparatory Working Group were recommended and a roadmap for the school's "Preparation for the Republican and International Olympics and Ensuring Student Participation" was developed as well.

Подготовка к научным олимпиадам

В Президентской школе в Фергане состоялась презентация учителя по «Воспитанию» и истории Юнусова Ахроржона Аминжоновича по подготовке школьников к Международным и Республиканским олимпиадам.

В конце презентации были рекомендованы члены Рабочей группы школы по подготовке к олимпиаде и разработан план работы школы «Подготовка к республиканским и международным олимпиадам и обеспечение участия учащихся».

Kunning boshlanishini “Subhidam bilan” boshlaymiz!

Farg'ona shahridagi Prezident maktabida har bir kun Ma'naviyat subhidam yig'ilishidan boshlanadi. Subhidam yig'ilishi avvalida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etiladi. Shundan so'ng kun tarixi eshittiriladi. Yig'ilish yakunida shu kunda tavallud topgan allomalar, arboblar, yozuvchilar, shoirlar va mashhur insonlar haqida ma'lumotlar berib boriladi hamda o'quvchilarda o'qishga bo'lgan rag'batlarini oshirib darslarga kuzatildilar!

Let's start the day with Morning meeting!

Every day at the Presidential School in Fergana begins with a spiritual morning meeting. At the beginning of the morning session, the National Anthem of the Republic of Uzbekistan is performed to instill a sense of patriotism in students. Then the date is announced. At the end of the meeting, information is provided about scholars, celebrities, writers, poets and celebrities born on this day, and students are encouraged to attend classes!

Начнем день с Утреннего собрания!



Каждый день в Президентской школе в Фергане начинается с духовного утреннего собрания. В начале утреннего собрания звучит Государственный Гимн Республики Узбекистан, чтобы привить учащимся чувство патриотизма. Затем объявлена дата. В конце встречи предоставляется информация об ученых, знаменитостях, писателях, поэтах и знаменитостях, рожденных в этот день, в конце занятия!

XALQARO GEOGRAFIYA OLIMPIADASI ! BIZ U HAQIDA NIMALARNI BILAMIZ?

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiytadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'nga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan rag'batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miyosida Vatanimiz dovrug'ini keng taratgan ajoddlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306 qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tuzilmasida Fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti tashkil etildi va Departamentning kelajakdag'i vazifalari belgilab berildi.

Yuqoridagi Prezident qarorining ijrosi sifatida 2021 yil 9-sentabrda Vazirlar Mahkamasining 562-qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda boshqa fanlar qatori, geografiya fani bo'yicha bir qator yangiliklar bor ekanligi, ko'p sonli geograflarni hursand qildi. Geografiya fani bo'yicha 10-11-sinflar o'rtaida fan olimpiadasining tashkil etilishi, eng asosiysi, Xalqaro olimpiadalar ro'yhatiga geografiya fanining kiritilishi, geografiya faniga qiziquvchi yoshlarni va ularning ustozlari uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi.

Biz uchun yangilik bo'lgan Xalqaro geografiya olimpiadasi haqida nimalarni bilamiz?

IGeo - har yili o'tkaziladigan xalqaro fan olimpiadasi, 16 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan milliy geografiya olimpiadalarining eng yaxshi ishtirokchilar o'rtaida o'tkaziladi. Olimpiada uch qismidan iborat: yozma test, multimediali test va ekskursiya. Uning formati geografiya bo'yicha o'tkaziladigan ko'plab Respublika olimpiadalariga o'xshaydi.

IGeo birinchi navbatda ishtirokchilarning fazoviy munosabatlar va jarayonlar haqidagi tushunchalarini, shuningdek, bu bilimlarni amalda iqtisodiy maqsadlarda qo'llash qobiliyatini sinovdan o'tkazadi.

1994 yilda Pragada bo'lib o'tgan Xalqaro geografik ittifoq kongressida Polsha va Gollandiya vakillari 15 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilari uchun xalqaro olimpiada tashkil etish g'oyasini ilgari surdilar. Birinchi olimpiada 1996 yilda Gaagada bo'lib o'tdi, unda beshta ishtirokchi mamlakat ishtirok etdi. Olimpiadalar har ikki yilda bir marta o'tkazildi va ishtirokchilar soni tobora ortib bordi. 2010 yilda Taypeyda ishtirokchilar soni birinchi marta 100 kishidan oshdi, bundan tashqari 2012 yildan boshlab olimpiadalar har yili o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

Xalqaro geografiya olimpiadasi tashkilotchilari o'z oldilariga quyidagi maqsadlarni qo'yishgan:

- Geografiyaning rivojlanishiga hissa qo'shish;
- Turli mamlakatlardan kelgan yoshlar o'rtasida o'zaro do'stlik munosabatlarini o'rnatish;
- Butun dunyoda geografiya fanining o'qitish sifatini yaxshilashni rag'batlantirish;

Xalqaro geografiya olimpiadasi yilnomasi:

2021-Istanbul, Turkiya

2019-Gongkong, Xitoy

2018-Kvebek, Kanada

2017-Belgrad, Serbiya

2016-Pekin, Xitoy

2015-Tver, Rossiya

2014-Krakov, Polsha

2013-Kioto, Yaponiya

2012-Kyoln, Germaniya

2010-Taybey, Tayvan

2008-Karfagen, Tunis

2006-Brisben, Avstraliya

2004-Gdansk, Polsha

2002-Durban,JAR

2000-Seul, Janubiy Koreya

1998-Lissabon, Portugaliya

1996-Gaaga, Niderlandiya

Navbatdagi Xalqaro geografiya olimpiadasi 2022 yil 18-22- iyul kunlari Fransiya poytaxti Parij shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Kelgusi maqolalarimizda o'tgan yillarda bo'lib o'tgan Xalqaro geografiya olimpiadasi materiallari va ularning yechimlari haqida berib borishga harakat qilamiz.

Izbayeva Dilfuza Rahmatovna

*Farg'ona shahridagi Prezident
maktabi oliy toifali geografiya fani
o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi*



“O’zbek tili kambag’al emas, balki o’zbek tilini kambag’al deguvchilarning o’zi kambag’al. Ular o’z nodonliklarini o’zbek tiliga to’nkamasinlar”. (Abdulla Qodiriy)

Tarix guvohki, mana bir necha asrlardandan beri ona tilimiz hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. O‘zbek tili shunday shirali, har bir qulorra xush yoqadi, eshitgan inson entikib ketadi. Bu tilda ilk marotaba onamizning allasini tinglaganmiz; bu tilda bobo-buvilarimizning nasihatlarini tinglaganniz; bu tilda otamiz bizga dakki bergan; bu tilda Ustozlarimiz bizga ilm o‘rgatgan... va ular o‘zlari sezmagan holda ona tilimizga mehr-muhabbat tuyg’ularini uyg’otganlar. Jonajon tilimiz, shoir Mirtemir aytganidek, “...yoshligimizdanoq jon-u qulog’imizga singib ketgan”.

O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z ona tilisini sevadi, uni hurmat qiladi va e‘zozlaydi. Chunki aynan shu til orqaligina har qanday millatning qay tarzda yashayotganligini, rivojlanayotganligini, yoki aksincha, orqada qolayotgan va qashshoqlashib borayotganligini bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham bejizga: “Til – millat ko‘zgusi”, - deyishmaydi.

1989-yil 21-oktabr. "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinib, o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lgan ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi.

Milliy tilimizga, ona tilimizga bo‘lgan e’tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o‘rinda aytgan quyidagi purma’no fikrlarni eslaylik: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo‘qotmak millat ruhini yo‘qotmakdur” . E’tibor beryapsizmi, milliy tilni yo‘qotmak millat ruhini yo‘qotmakka qiyoslanmoqda. Darhaqiqat, tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa, bugungi globallashuv dunyo xalqlarining turmush tarzi umumiylilik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so‘zlarning zalvori ikki hissa ortadi.

Ergasheva Nargiza Ne'matullayevna

*Farg’ona shahridagi Prezident
mktabi oliy toifali ona tili va adabiyot
fani o’qituvchisi*

